

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV****Otaqo'ziyeva Nargiza Mamasidiqovna****Qo'qon universiteti Andijon filiali****Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17995848>**

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarbiya va ijtimoiy tarbiya tushunchalarining mazmun-mohiyati yoritilgan. Tarbiyaning shaxs kamolotidagi o'rnini, uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati hamda ijtimoiy tarbiyaning shaxsni jamiyat hayotiga moslashtirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, tarbiya jarayonining asosiy subyektlari va ijtimoiy muhitning ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ijtimoiy tarbiya, shaxs, jamiyat, ijtimoiylashuv, ma'naviyat, axloq, ta'lim-tarbiya jarayoni.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolaning shaxs sifatida shakllanishini, uni hayotga tayyorlashni, hayotiy muhim masalalarni hal qila olish, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, atrofdagilar bilan samarali muloqot qilish hamda "Men" obrazini shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat usullarini egallashini ko'zda tutadi.

Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatida yaxlit rivojlanishini talab etadi. Ijtimoiy-tarixiy tajriba faoliyat jarayonida o'zlashtiriladi. Faollik bolaning tabiiy xususiyati bo'lib, aynan tarbiya jarayonidagi faollik asosida turli faoliyat turlari shakllanadi. Bular: muloqot faoliyati, bilish faoliyati, buyumlar bilan harakat qilish, o'yin, oddiy mehnat va o'quv faoliyatidir. Ushbu faoliyatlar bolalar tomonidan birdaniga emas, balki tarbiyachi rahbarligida bosqichma-bosqich egallanadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish metodik, pedagogik va psixologik jihatdan puxta tayyorgarlikni talab etadi. Bu jarayon maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy bazasi, tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda bolalarning ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini innovatsion yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etadi.

"Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda pedagogik-psixologik, metodik va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Har bir yosh guruhiga mos adabiyotlar bilan boyitish, bolalarni o'ylashga undovchi muammoli vaziyatlarga asoslangan rivojlantiruvchi o'yin markazlarini tashkil etish hamda ularning faoliyatiga ota-onalar va jamoatchilikni jalb etish ta'lim sifatini oshiradi.

Maktabgacha yoshdagi ya'ni 6-7 yosh bolalarda shakllantiriladigan asosiy kompetensiyalar: kommunikativ kompetensiya, turli vaziyatlarda muloqot vositalaridan samarali foydalana olish. Ijtimoiy kompetensiya, kattalar va tengdoshlar bilan axloqiy me'yorlarga amal qilgan holda muloqot qilish. Shaxsiy kompetensiya, (Men-konsepsiyasi) o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilish, kundalik hayotni boshqarish va sog'lom turmush tarziga amal qilish. Bilish kompetensiyasi, mustaqil izlanish, tahlil qilish va atrof-olamni anglash.

Maktabgacha ta'limda yuqori sifat va samaradorlikka erishish bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli tashkil etish, bo'sh vaqtni samarali o'tkazish, qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirishga ijodiy yondashishni talab etadi. Shu maqsadda innovatsion texnologiyalardan, jumladan, "Keys-stady" usulidan foydalanish bolalarning mustaqil fikrlash va faol o'rganishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim davrida kitob mutolaasiga qiziqish uyg'otish bolalarda so'z boyligini oshirish, xotira va tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Kitobxonlikni keng targ'ib qilish" tashabbusini maktabgacha ta'limdan boshlash ilmiy va amaliy jihatdan muhim bo'lib, bu barkamol, bilimli va mustaqil fikrlovchi avlodni tarbiyalashning samarali vositasidir.

Bolaning har tomonlama rivojlanishida ota-onalar bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Bunda ota-onalarning fikrlarini inobatga olish, ularni tarbiyaviy jarayonga jalb etish va pedagogik bilimlar bilan qurollantirish muhim hisoblanadi.

Bolalarni maktabga tayyorlash fanlar bo'yicha ortiqcha yuklama berish orqali emas, balki ularning psixologik tayyorgarligi, bilishga qiziqishi, muloqot, ijodiy fikrlash, diqqat, xotira va tafakkurini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgan kunidan boshlanishi lozim.

Shuni unutmaslik kerakki, tarbiyachi rivojlanmasa, maktabgacha ta'lim rivojlanmaydi. Tarbiyachining doimiy izlanishi, xalq pedagogikasi va zamonaviy xorij tajribalarini uyg'unlashtira olishi ta'lim sifatining asosiy omilidir.

Maktabgacha ta'lim – boshlang'ich ta'limning poydevori. Poydevor mustahkam bo'lsa, kelajak ham mustahkam bo'ladi. Shunday ekan, barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kun pedagogining eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya va ijtimoiy tarbiya shaxs kamolotining muhim omillari hisoblanadi. Tarbiya orqali insonda ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari va sog'lom dunyoqarash shakllanadi. Ijtimoiy tarbiya esa shaxsning jamiyat hayotiga moslashuvi, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi hamda jamiyat qadriyatlarini o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida ijtimoiy tarbiyaning ahamiyati yanada ortib, yosh avlodni vatanparvarlik, mas'uliyat, fuqarolik faolligi va milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash muhim vazifaga aylanmoqda. Shu bois, tarbiya jarayonida oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhitning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiya va ijtimoiy tarbiyaning uyg'unligi barkamol, yetuk va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Abdullayeva Q. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Hasanboyev J., To'rayev O. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Musurmonova O. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Sharq, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.